

7-dars. Takrorlash. O'zaro teskari masalalar



1. Ortiqcha misolni toping. O'z fikringizni tushuntiring.



$$12 - 5 = 7$$



$$17 - 5 = 12$$



$$17 - 12 = 5$$



$$5 + 12 = 17$$



$$12 + 5 = 17$$



2. Quyidagi sonlardan foydalanib, tuzish mumkin bo'lgan barcha tengliklarni yozing:

2, 5, 7

8, 6, 14

25, 12, 37

41, 37, 78

O'zaro teskari misollar:

Qo'shish – ayirishga teskari amal.

$$14 + 65 = 79 \quad 79 - 65 = 14$$

Ayirish – qo'shishga teskari amal.

$$79 - 14 = 65 \quad 65 + 14 = 79$$






3. Masalani yeching. Unga teskari masalalar o'ylab toping.

Do'konda sovg'alar sotilyapti:
27 ta yong'oqdan yasalgan bezak va
51 ta qarag'ay g'uddasidan yasalgan
savatcha. Do'konda jami nechta
sovg'a bor?



4. Qanday sonlar tushirib qoldirilgan?






5. Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.

Namuna:

$$45 = 40 + 5$$




6. Qarag'ayning balandligi 35 metr,
emanning balandligi 13 metr,
archaning balandligi esa 25 metr.

- Eman archadan necha metr past?
- Archa qarag'aydan necha metr past?
- Eman qarag'aydan necha metr past?



7. Qonuniyatlarni aniqlang.



8. Masalani yeching. Unga teskari masala o'ylab toping.
Giyohli choy uchun 21 ta qarag'at va 23 ta yalpiz bargi
quritildi. Jami nechta barg quritilgan?

9. Hisoblang.

$$12 + 5$$

$$17 - 4$$

$$14 + 2$$

$$19 - 3$$

$$8 + 9$$

$$15 - 6$$

$$6 + 5$$

$$13 - 9$$

